

MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MA’NAVIY MEROSNI QAYTA TIKLASH SIYOSATI (TARIXIY VA HUQUQIY) JIHATLAR TAHLILI

Maxmudov Dilshod Abdixalil o‘g‘li

Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

Shahrisabz davlat pedagogika institut

<https://orcid.org/0009-0000-7475-6108>

maxmudovdilshod440@gmail.com

Asadova Asila Xusniddin qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Tarix yo‘nalishi 2-kurs magistranti

asilaa401@gmail.com

UDK 94 (575.1)

Annotatsiya: Ushbu maqolada mustaqillik yillarida O‘zbekistonda milliy madaniyat va ma’naviy merosni tiklash, saqlash hamda rivojlantirish jarayonlari tahlil qilinadi. Sobiq ittifoq davrida cheklovlarga uchragan milliy urf-odatlar, diniy qadriyatlar va tarixiy yodgorliklarning qayta tiklanishi davlat siyosatining muhim yo‘nalishi sifatida yoritiladi. Shuningdek, tarixiy xotirani mustahkamlash, buyuk allomalar merosini o‘rganish va ularni yosh avlodga yetkazish borasida amalga oshirilgan islohotlar ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Milliy madaniyat, ma’naviy meros, tarixiy xotira, diniy qadriyatlar, milliy o‘zlik, madaniy siyosat, allomalar merosi, Navro‘z bayrami, islom madaniyati.

Аннотация: В данной статье анализируются процессы восстановления, сохранения и развития национальной культуры и духовного наследия в Узбекистане в годы независимости. Особое внимание уделяется возрождению национальных традиций, религиозных ценностей и исторических памятников, которые в период бывшего Советского Союза подвергались ограничениям и идеологическому контролю. Также научно рассматриваются реформы, направленные на укрепление исторической памяти, изучение наследия великих учёных и его передачу молодому поколению как важное направление государственной политики.

Ключевые слова: национальная культура, духовное наследие, историческая

память, религиозные ценности, национальная идентичность, культурная политика, наследие учёных, праздник Навруз, исламская культура.

Abstract: This article analyzes the processes of restoration, preservation and development of national culture and spiritual heritage in Uzbekistan during the years of independence. Particular attention is given to the revival of national traditions, religious values and historical monuments that were subjected to restrictions and ideological control during the Soviet period. The study also examines, from a scientific perspective, the reforms aimed at strengthening historical memory, studying the legacy of great scholars and transmitting it to the younger generation as an important direction of state policy.

Keywords: national culture, spiritual heritage, historical memory, religious values, national identity, cultural policy, scholars' legacy, Navruz celebration, Islamic culture.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda milliy madaniyatni rivojlantirish masalasiga alohida e‘tibor qaratildi, ayniqsa uning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilandi. Mustaqillik sobiq Ittifoq davrida e‘tibordan chetda qolgan ko‘plab noyob tarixiy va madaniy obidalarni asrash hamda ularni kelajak avlodlarga to‘laqonli yetkazish uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Raqamlarga murojaat qiladigan bo‘lsak, sobiq tuzum davrida 6700

dan ortiq tarixiy-madaniy yodgorliklarni ta'mirlash uchun 1990-yilda 12,4 mln so'm mablag' ajratilgan bo'lsa, 1992-yilda ushbu maqsadlar uchun respublika byudjetidan 65,4 mln so'm yo'naltirilgan. Bu ko'rsatkichlar mustaqillikning dastlabki yillaridayoq madaniy merosni tiklash va muhofaza qilish davlat siyosatining muhim yo'nalishiga aylanganini ko'rsatadi [1].

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Sovet mustabid tuzumi sharoitida o'zbek milliy madaniyati jiddiy talafot ko'rdi. Kommunistik mafkura vakillari, boshqa mustamlakachi kuchlar singari, xalqni ma'naviy jihatdan bo'ysundirish maqsadida, eng avvalo, uning milliy qadriyatlari va madaniy merosiga zarba berishga intildilar. Shunga qaramay, o'zbek xalqi o'z milliy o'zligini, madaniy an'analari va qadriyatlarini saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi. Bu esa mustaqillik yillarida ilgari kamsitilgan va e'tibordan chetda qolgan madaniy merosni tiklash hamda milliy o'zlikni anglash jarayonini jadallashtirish imkonini berdi.

Hozirgi kunda O'zbekiston "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" tamoyili asosida taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo'yimoqda. Zamonaviy rivojlanish sur'atlari ta'lim-tarbiya tizimiga ham aniq va qat'iy talablar qo'yimoqda [2].

Ma'lumki, sho'rolar davrida o'zbek xalqining asrlar davomida ardoqlab kelgan milliy urf-odatlar, an'analari va qadriyatlariga, ayniqsa milliy bayramlariga nisbatan sobiq markaz tomonidan asossiz cheklov va taqiqlar joriy etildi. Ko'plab milliy marosimlar bekor qilindi yoki rasmiy darajada nishonlanmay qo'ydi. Ilgari keng nishonlab kelingan "Hosil bayrami", "Qovun sayli", "Gul bayrami" singari xalq sayillari unutila boshladi, "Navro'z" umumxalq bayrami esa taqiqlab qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov faoliyatining dastlabki bosqichidayoq jamiyatni ma'naviy jihatdan poklash, milliy madaniyatlarning uyg'un rivojlanishini ta'minlash, xalqning tarixiy an'analari, urf-odatlar va marosimlarini tiklash masalalariga alohida e'tibor qaratdi.

1990-yil 2-mayda qabul qilingan Prezident

farmoni asosida Navro'z bayrami mamlakatimizda rasmiy ravishda qayta tiklandi. Bu tarixiy adolatning qaror topishi va milliy qadriyatlarning e'tirof etilishi yo'lida muhim qadam bo'ldi. Shuningdek, 1990-yil 2-iyundagi "Musulmonlarning Saudiya Arabistoniga Haj qilishi to'g'risida"gi farmonga muvofiq, xalqimiz tarixida ilk bor davlat ko'magida fuqarolarga har yili Haj va Umra amallarini ado etish imkoniyati yaratildi [3].

1992-yil 7-martda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Din ishlari bo'yicha qo'mita tashkil etildi. Mazkur tuzilmaning faoliyati mamlakatimizda vijdon erkinligini ta'minlash va diniy tashkilotlar faoliyatini tartibga solishda muhim ahamiyat kasb etdi. 1992-yil 27-martdagi Prezident farmoni bilan Ro'za hayitining birinchi kuni dam olish kuni deb e'lon qilindi. Shu bilan birga, diniy-axloqiy mazmundagi adabiyotlar keng nashr etila boshlandi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida, shuningdek 1998- yil 30-aprelda yangi tahrirda qabul qilingan "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"[4] gi Qonunda davlatning din va diniy tashkilotlarga munosabati huquqiy jihatdan aniq belgilab berildi. 1999-yil 7-aprelda Toshkent Islom universiteti tashkil etildi (2018 yil 16 apreldan — Xalqaro Islom akademiyasi). Bugungi kunda mazkur ta'lim muassasasida minglab talabalar tahsil olmoqda.

Mustamlaka davrida kamsitilgan va cheklangan diniy qadriyatlar mustaqillik sharofati bilan qayta tiklandi, islomshunos allomalar merosi munosib ravishda e'zozlandi. 1993-yil 16-sentyabrda Buxoroda mashhur mutasavvif shayx Bahouddin Naqshband tavalludining 675 yilligi keng nishonlandi. Ushbu yubiley munosabati bilan Buxorodagi Naqshband nomi bilan bog'liq tarixiy obidalar ta'mirlandi va uning hayoti hamda ta'limotiga bag'ishlangan qator ilmiy risolalar chop etildi [5].

1998-yil 23-oktyabrda Samarqandda buyuk muhaddis Imom al-Buxoriy tavalludining 1225 yilligi tantanali ravishda nishonlandi. Shu kuni Samarqand viloyatining Xartang qishlog'ida Imom al-Buxoriy yodgorlik majmuasi ochildi.

Yubiley doirasida allomaning mashhur “Al-Jome’ as-Sahih” asari to’rt jildlik nashrda chop etildi.

Imom al-Buxoriyning to’rt jildlik “Al-Jome’ as-Sahih” asari nashr etilishi diniy-ma’rifiy merosni tiklash yo’lida muhim qadam bo’ldi.

2000-yil 16–17 noyabr kunlari Marg’ilon shahrida islom huquqshunosligining yirik namoyandalardan biri Burhoniddin al-Marg’inoniy tavalludining 910 yilligi, Samarqandda esa islom aqidaviy ta’limotining zabardast olimi Imom Abu Mansur al-Moturidiy tavalludining 1130 yilligi keng nishonlandi. Ushbu sanalar munosabati bilan allomalar xotirasiga bag’ishlab barpo etilgan yodgorlik majmualari tantanali ravishda ochildi [6].

Burhoniddin al-Marg’inoniyning islom huquqiga oid mashhur “Al-Hidoya” asari qayta nashr etilib, keng kitobxonlar ommasiga taqdim etildi. Shuningdek, keyingi yillarda islom olamining boshqa yirik mutafakkirlari va allomalari yubileylari ham davlat miqyosida nishonlandi. Jumladan, Imom Abu Iso at-Termiziyning 1200 yilligi, Mahmud az-Zamaxshariyning 920 yilligi, Abduxoliq G’ijduvoniyni 900 yilligi, Najmiddin Kubroning 850 yilligi hamda Xoja Ahror Vali tavalludining 600 yilligi keng ko’lamda o’tkazildi. Mazkur tadbirlar milliy-diniy merosni tiklash, buyuk allomalar ilmiy-ma’naviy merosini chuqur o’rganish va uni yosh avlod ongiga singdirish yo’lida muhim tarixiy ahamiyat kasb etdi. Jamiyat ma’naviyatini yuksaltirishda tarixiy xotira, ajdodlar merosini chuqur o’rganish, milliy-axloqiy qadriyatlar va an’analarning o’rni beqiyosdir. Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq milliy madaniy merosni tiklash, uni keng jamoatchilikka yetkazish hamda tarixiy adolatni qaror toptirish borasida izchil va tizimli chora-tadbirlar amalga oshirildi. 1991 yilning “Alisher Navoiy yili” deb e’lon qilinishi milliy o’zlikni anglash va ma’naviy tiklanish jarayonida muhim ijtimoiy-madaniy voqea bo’ldi. 1994-yilda buyuk alloma va davlat arbobi Mirzo Ulug’bek tavalludining 600 yilligi keng nishonlandi. 1996-yil Amir Temur nomi bilan bog’lanib, uning tavalludining 660 yilligi xalqaro miqyosda o’tkazildi [7]. Shuningdek,

Ahmad al-Farg’oniy tavalludining 1200 yilligi, sarkarda Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligi, “Alpomish” dostonining 1000 yilligi hamda Xorazmda “Avesto” kitobining 2700 yilligi keng miqyosda nishonlandi.

Yurtimiz qadimiy shaharlarining yubileylari ham xalqaro miqyosda e’tirof etildi. Jumladan, 1997 yilda Buxoro va Xiva shaharlarining 2500 yilligi, 2002 yilda Termiz shahrining 2500 yilligi hamda Shahrisabz shahrining 2700 yilligi, 2004 yilda Qarshi (Naxshab) shahrining 2700 yilligi, 2007 yilda Samarqand shahrining 2750 yilligi va Marg’ilon shahrining 2000 yilligi tantanali ravishda nishonlandi [8]. 1999 yilda Toshkent shahrida Ikkinchi jahon urushi yillarida fashizmga qarshi kurashda halok bo’lgan yurtdoshlar xotirasini abadiylashtirish maqsadida “Xotira maydoni” majmuasi barpo etildi va 9 may kuni uning ochilish marosimi o’tkazildi.

2000-yil 12-mayda Toshkent shahrining Bo’zsuv kanali bo’yida qatag’on davri qurbonlari xotirasiga bag’ishlab “Shahidlar xotirasi” yodgorlik majmuasi ochildi. Mazkur majmua qoshida “Qatag’on qurbonlari xotirasi” muzeyi tashkil etilib, 2002-yil 27-avgust kuni foydalanishga topshirildi. 2009-yil 1-sentyabr kuni “O’zbekiston” anjumanlar saroyida Toshkent shahrining 2200 yilligiga bag’ishlangan tantanali majlis bo’lib o’tdi. Mazkur marosimda Toshkent shahri “Mustaqillik” ordeni bilan taqdirlandi.

Ushbu tadbirlar tarixiy xotirani tiklash, milliy o’zlikni mustahkamlash va ma’naviy qadriyatlarni rivojlantirish siyosatining izchil davom etayotganini yaqqol namoyon etdi.

Mustaqillik sharofati bilan badiiy ijod va adabiyot sobiq tuzum davrida hukm surgan sinfiylik, partiyaviylik hamda kommunistik mafkuraviylik kabi g’oyaviy cheklovlardan xalos bo’ldi. Ijodiy jarayon mafkuraviy qoliplardan ozod etilib, adabiyotning tabiiy rivojlanishiga keng yo’l ochildi [9].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa qilib aytganda, badiiy adabiyotda milliylik, ko’p asrlik tarixiy-ijodiy an’analari va umuminsoniy qadriyatlarga tayangan holda erkin fikr yuritish tamoyillari tiklandi. Ijodkorlar milliy o’zlikni anglash, tarixiy xotirani qayta baholash hamda inson

ruhiy olamini chuqur tasvirlash imkoniyatiga | mazmunan boyishi va janr jihatidan
ega bo'ldilar. Bu jarayon o'zbek adabiyotining | yangilanishiga zamin yaratdi.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI
(ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Абдуллаев А. Давлат бошқаруви ислохотлари. – Т.: Академия, 2012. – 284 б.
2. Ҳамроев Т. Демократик ислохотлар ва фуқаролик жамияти. – Т.: Маънавият, 2008. – 232 б.
3. Исмаилов Ш. Миллий мафкура ва тараққиёт. – Т.: Маънавият, 2011. – 210 б.
4. <https://lex.uz/docs/-5491534>
5. Ziyaeva D. Cultural Policy in Independent Uzbekistan. – Tashkent: Manaviyat, 2012. – 220 p.
6. Эргашев И. Миллий ғоя ва давлат сиёсати. – Т.: Маънавият, 2009. – 210 б.
7. Ўзбекистон тарихи (1991–2016 йиллар). – Т.: Фан, 2016. – 520 б.
8. Чориев А. Ўзбекистонда давлат ва жамият модернизацияси. – Т.: Университет, 2014. – 300 б.
9. Ўзбекистон: мустақил тараққиёт йиллари. – Т.: Шарқ, 2011. – 448 б.